

RADIKALIZMNING PAYDO BO‘LISH TARIXI VA UNING IJTIMOY-SIYOSIY XAVFI

Jo‘rayev Akram Namozovich

Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21912406>

Annotatsiya. Ushbu maqolada radikalizm tushunchasining tarixiy shakllanish jarayoni va uning ijtimoiy-siyosiy xavfi tahlil qilinadi. Atamaning lotincha o‘zagidan XVIII asr oxiri Britaniya siyosiy leksikoniga kirib kelishi, XIX asr davomida ma‘noviy o‘zgarishga uchrashi hamda XX asrda siyosiy zo‘ravonlik bilan bog‘lanib qolishi bosqichma-bosqich ko‘rsatib beriladi. Maqolada radikal talabning islohotchilik shaklidan zo‘ravonlik shakliga o‘tish mexanizmi, bu jarayonning ijtimoiy sabablari hamda uning siyosiy tizim barqarorligiga yetkazadigan zarari yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy adabiyotda “radikallashuv” tushunchasi atrofida yuzaga kelgan tushunchaviy chalkashlik masalasi muhokama qilinadi.

Tayanch so‘zlar: radikalizm, radikallashuv, siyosiy zo‘ravonlik, ijtimoiy harakatlar, terrorizm to‘lqinlari, siyosiy tarix, qutblanish, muros, siyosiy institutlar, ijtimoiy falsafa.

Аннотация. В данной статье анализируется процесс исторического формирования понятия радикализма и его социально-политическая опасность. Последовательно показано вхождение термина из латинской основы в британский политический лексикон конца XVIII века, его смысловая трансформация в течение XIX века, а также его закрепление за политическим насилием в XX столетии. В статье раскрывается механизм перехода радикального требования от реформистской формы к насильственной, социальные причины этого процесса и ущерб, наносимый им стабильности политической системы. Кроме того, обсуждается проблема концептуальной путаницы, возникшей вокруг понятия «радикализация» в современной научной литературе.

Ключевые слова: радикализм, радикализация, политическое насилие, общественные движения, волны терроризма, политическая история, поляризация, компромисс, политические институты, социальная философия.

Annotation. This article analyses the historical formation of the concept of radicalism and its socio-political danger. It traces step by step the entry of the term from its Latin root into the British political vocabulary of the late eighteenth century, its semantic transformation during the nineteenth century, and its association with political violence in the twentieth century. The article examines the mechanism by which a radical demand shifts from a reformist to a violent form, the social causes of this process, and the damage it inflicts on the stability of the political system. It also discusses the conceptual confusion surrounding the notion of “radicalisation” in contemporary scholarship.

Keywords: radicalism, radicalisation, political violence, social movements, waves of terrorism, political history, polarisation, compromise, political institutions, social philosophy.

Kirish. Radikalizm bugungi ijtimoiy-siyosiy muhokamalarda eng ko‘p tilga olinadigan, ayni paytda eng noaniq talqin qilinadigan tushunchalardan biridir. U ko‘pincha ekstremizm va terrorizm bilan bir qatorda, hatto ularning sinonimi sifatida ishlatiladi. Holbuki, bu uch tushuncha bir xil emas va ularni farqlamaslik ilmiy tahlilga ham, amaliy chora-tadbirlarga ham putur yetkazadi.

“Radikal” so‘zining o‘zagi lotincha radix – “ildiz” so‘ziga borib taqaladi. Etimologik ma‘nosiga ko‘ra radikallik muammoni yuzaki ko‘rinishida emas, ildizida hal qilishga intilishni bildiradi. Bu intilishning o‘zi hali zo‘ravonlik degani emas: tarixda tubdan islohot talab qilgan ko‘plab harakatlar qonuniy siyosiy doirada faoliyat yuritgan. Radikalizm zo‘ravonlikka aylanadigan chegara — aynan shu maqolada aniqlanishi lozim bo‘lgan masaladir.

Maqolaning maqsadi – radikalizm hodisasining tarixiy shakllanish jarayonini o‘rganish va uning ijtimoiy-siyosiy xavfini nazariy jihatdan asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mavzuga oid o‘zbek ilmiy adabiyotida bir necha yo‘nalish shakllangan. J.S.Muxtorov, B.F.Alimov va S.B.Xo‘jaqulovlarning ma‘ruzalar kursida terrorizm va ekstremizmning ijtimoiy xavfi hamda tarixiy ildizlari profilaktika nuqtai nazaridan tahlil qilingan; unda hodisaning tarixiy evolyutsiyasi bosqichma-bosqich ko‘rsatib berilgani alohida ahamiyatga ega [1]. M.Lafasov va hammualliflarning metodik qo‘llanmasida radikal markazlarning yoshlar ongini nishonga olish amaliyotiga e‘tibor qaratilgan [2].

J.T.Yuldashov terrorizmning ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlar mavjud muhitda ildiz otishini asoslaydi [3]. H.E.Mamatqulov xalqaro terrorizmning huquqiy tabiatini o‘rganib, unga yagona universal-huquqiy

ta'rif berilmaganini muammo sifatida ko'rsatadi [4]. O.O.Olimjonov zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning katta qismi yosh avlod tomonidan sodir etilayotganini qayd etadi [5], U.M.Hoshimov esa terrorizmning siyosiy va jinoiy ko'rinishlarini farqlaydi [6].

Xorijiy adabiyotda D.Rapoportning “to'rt to'lqin” konsepsiyasi zamonaviy siyosiy zo'ravonlikni davrlashtirishning eng keng tarqalgan modeli hisoblanadi [7]. M.Sedgvik esa “radikallashuv” atamasining turli sohalarida turlicha qo'llanishi ilmiy chalkashlikka olib kelayotganini asoslab bergan [8]. Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik birligi tamoyili, qiyosiy-tarixiy hamda genetik yondashuvlar, shuningdek semantik tahlil usuli qo'llanildi.

Muhokama. Tahlilni tushunchaviy chegaralarni aniqlashdan boshlash lozim. Radikalizm bu mavjud ahvolni tubdan, murosasiz tarzda o'zgartirishga intilish. Ekstremizm (lotincha extremus – “haddan tashqari”) jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid keskin qarash va harakatlarni bildiradi. Terrorizm esa bu qarashlarning zo'ravonlik amaliyotiga aylangan yakuniy shaklidir. Uchala tushuncha bitta uzluksiz chiziqda joylashgan bo'lsa-da, ular bir xil emas. E.Mamatqulov ta'kidlaganidek, hatto terrorizmning o'ziga ham bugungacha yagona universal-huquqiy ta'rif berilmagan [4].

Radikalizmning tarixiy ildizlari chuqur. Muxtorov va hammualliflar terrorizmni “uzoq tarixga ega hodisa bo'lib, uning ildizlari insoniyatning qadimgi tarixiga borib taqaladi” deb baholaydilar [1]. Yuldashov bu fikrni to'ldiradi: jamiyat azaldan ijtimoiy va iqtisodiy kelishmovchiliklarga ega bo'lgani uchun zo'ravon harakatlar o'ziga mos muhitni topgan va aynan tafovutlar mavjud joylarda faollashgan [3]. Bundan muhim xulosa kelib chiqadi, ya'ni radikalizm bo'shliqda emas, muayyan ijtimoiy ziddiyat zaminida shakllanadi.

Radikal harakatlarning tarixiy taraqqiyoti chiziqli bo'lmagan. Muxtorov va hammualliflar bu jarayonning bosqichlarini quyidagicha umumlashtiradilar: avvalo muayyan usul va vositalar shakllangan; so'ngra harakat o'z mafkurasini yaratgan va uning so'l va o'ng, ijtimoiy va siyosiy, millatchilik hamda inqilobiy yo'nalishlari paydo bo'lgan. Keyin ijtimoiylashuv yuz bergan, ya'ni harakat marginal guruhlardan yuqori tabaqagacha o'z bazasiga ega bo'lgan; to'rtinchi bosqichda institutsionallashuv sodir bo'lib, doimiy tashkilotlar tuzilgan va faoliyat xalqaro tus olgan. Beshinchi bosqichda ommaviylashuv kuzatilgan, ya'ni nihoyat, internet va ommaviy axborot vositalari faol qo'llanila boshlagan [1]. Ushbu ketma-ketlik radikalizmning g'oyadan tashkilotga, tashkilotdan tarmoqqa aylanish mantiqini ko'rsatadi.

Zamonaviy siyosiy zo'ravonlikni davrlashtirishda Rapoportning “to'rt to'lqin” konsepsiyasi keng qo'llanadi [7]. Unga ko'ra, har bir to'lqin taxminan bir avlod umriga teng vaqt davomida amal qiladi, o'z mafkuraviy asosi va texnologiyasiga ega bo'ladi hamda yangi avlod eski g'oyalarni qabul qilmaganda so'nadi. Bundan muhim xulosa kelib chiqadi, ya'ni radikalizm abadiy emas, u tarixan o'tkinchi hodisadir.

Statistik ma'lumotlar hodisaning miqyosi barqaror emasligini tasdiqlaydi. Muxtorov va hammualliflar keltirgan raqamlarga ko'ra, 1968–1980-yillarda dunyo bo'yicha 6700 ga yaqin terrorchilik harakati qayd etilgan; 1981-yilda ularning soni 2700 taga yetgan, 1987-yilda esa 832 taga tushgan; 2000–2011-yillarda 500 ga yaqin tashkilot tomonidan 10 mingga yaqin harakat sodir etilib, 26 mingdan ortiq kishi halok bo'lgan va jarohatlangan [1]. Raqamlarning notekisligi radikalizmning avj olishi tasodifiy emasligini ko'rsatadi.

Tushunchaviy noaniqlik alohida muammo sifatida qaralmoqda. Sedgvik “radikallashuv” atamasining xavfsizlik sohasida, integratsiya siyosatida va ilmiy tadqiqotlarda uch xil ma'noda qo'llanishini ko'rsatib bergan [8]. Bu holat o'zbek adabiyotiga ham taalluqli. Radikalizm, ekstremizm va terrorizm atamaları ko'pincha farqlanmasdan ishlatiladi.

Radikalizmning ijtimoiy-siyosiy xavfi bir necha darajada namoyon bo'ladi. Muxtorov va hammualliflar bu xavfni ijtimoiy hayotning iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy va boshqaruv sohalariga salbiy ta'sir o'tkazish, faoliyatning uyushgan tarzda amalga oshirilishi, murosasizlik zaminida millatlararo nizolarni keltirib chiqarish hamda jamiyat a'zolarida ishonchsizlik uyg'otish orqali tavsiflaydilar [1].

Bu tavsifni kengaytirish mumkin. Birinchidan, radikalizm murosasizlikni yo'qqa chiqaradi. U ijtimoiy muammoni “hal qilinishi” emas, “tugatilishi” kerak bo'lgan holat deb qaraydi. Ikkinchidan, u jamiyatni qutblaydi – ijtimoiy makon “biz” va “ular”ga bo'linadi, betaraflik esa xiyonat sifatida talqin qilinadi. Uchinchidan, radikalizm zo'ravonlikni oddiy holga aylantiradi. Dastlab istisno sifatida oqlangan harakat vaqt o'tishi bilan me'yorga aylanadi. To'rtinchidan, u siyosiy institutlarga ishonchni yemiradi.

Alohida e'tiborni radikalizmning yosh avlodga yo'naltirilganligi talab qiladi. Olimjonov zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilayotganini qayd etadi [5]. Muxtorov va hammualliflar ekstremizm yoshlarni “kollektivistik va maksimalistik qarorlar” hamda ideal sarobi bilan o'ziga tortishini, bunda yolg'izlikdan va ma'naviy bo'shliqdan qochish istagi

muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar [1]. Lafasov va hammualliflar radikal markazlarning yoshlardan “konveyer” usulida ijrochi tayyorlash amaliyotini alohida xavf sifatida ko‘rsatadilar [2]. Hoshimov esa terrorizmning siyosiy ko‘rinishi jinoiy ko‘rinishidan xavfliroq ekanini qayd etadi [6]. Demak, radikalizmning eng jiddiy xavfi uning stixiyaliligida emas, uyushganligidadir.

Xulosa. O‘tkazilgan tahlil quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Birinchidan, radikalizm o‘z mohiyatiga ko‘ra mavjud ahvolni tubdan o‘zgartirishga intilishni bildiradi va bu intilishning o‘zi hali zo‘ravonlik degani emas. Radikal talabning ekstremistik, so‘ngra terroristik shaklga o‘tishi alohida jarayon bo‘lib, u muayyan ijtimoiy shart-sharoitlarda yuz beradi.

Ikkinchidan, radikal harakatlar tarixi bosqichli xarakterga ega: usul va vositalarning shakllanishi, mafkuraning yaratilishi, ijtimoiylashuv, institutsionallashuv, ommaviylashuv va zamonaviy texnologiyalarning o‘zlashtirilishi. Har bir bosqichga mos ravishda profilaktika usullari ham o‘zgarishi lozim.

Uchinchidan, radikalizmning asosiy ijtimoiy xavfi zo‘ravonlikning o‘zida emas, balki u tayyorlaydigan tafakkur tarzida — murosani inkor etish, jamiyatni qutblash va siyosiy institutlarga ishonchni yemirishda namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchidan, radikalizmning asosiy nishoni yosh avlod hisoblanadi. Shu sababli profilaktika ishi taqiqlovchi choralar bilan cheklanmasligi, yoshlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondiruvchi ijobiy muqobilni taklif eta olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мухторов Ж.С., Алимов Б.Ф., Хўжакулов С.Б. Терроризм ва экстремизмга қарши кураш тактика ва методикаси (Хуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти мутахассислиги учун): маърузалар курси. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси, 2016. – 100 б.

2. Lafasov M., Jumaniyozov X.S., Masharipova G.K., Xoliqov E., Mallaeva E.M. Diniy ekstremizm, missionerlik va xalqaro terrorizmga qarshi kurash: metodik qo‘llanma. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 66 b.

3. Yuldashov J.T. Terrorizm jinoyatining tarixi, jamiyatga solayotgan xavf-xatarlar hamda murosasiz kurashishning zamonaviy usullari. – 2022. – 8 b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7366546>

4. Mamatqulov H.E. Xalqaro terrorizm xalqaro jinoyat sifatida // Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – Vol. 3, Issue 11. – B. 178–183.

5. Olimjonov O.O. Terrorizm – umumbashariy global muammo // Uzbek Scholar Journal. – 2024. – Vol. 27. – B. 60–63.

6. Hoshimov U.M. Bugungi kunda xalqaro terrorizmning turlari va maqsadi // Development of Pedagogical Technologies in Modern Sciences: xalqaro ilmiy-onlayn konferensiya materiallari. – 2024. – B. 10–13.

7. Rapoport D.C. The Four Waves of Modern Terrorism // Attacking Terrorism: Elements of a Grand Strategy / Eds. A.K.Cronin, J.M.Ludes. – Washington, D.C.: Georgetown University Press, 2004. – P. 46–73.

8. Sedgwick M. The Concept of Radicalization as a Source of Confusion // Terrorism and Political Violence. – 2010. – Vol. 22, No. 4. – P. 479–494.